

VALYUTA KURSI REJIMLARI

Alimurodov Temur Bahodir o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida jahonga tanilgan birlinchi klinikning tashqi iqtisodiy aloqalarga katta e’tibor berib kelindi. Hech bir davlat tashqi iqtisodiy aloqalarsiz mukammal rivojlana olmaydi. Shu sababli xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, qo‘shma korxonalarini barpo etish va iqtisodiyotga chet el sarmoyalarini jalb etish uchun O‘zbekiston Respublikasida keng imkoniyat hamda sharoitlar yaratib qo‘yildi. Mustaqillikning birlinchi klinikning ushbu masala Respublika Prezidenti va hukumatining diqqat e’tiborida bo‘ldi. Dastlab O‘zbekiston Respublikasi milliy pul birligi "so‘m"ni muomalaga kiritish va hozirgi kun orasidagi davr mobaynida respublikada valyuta tizimini barpo etish, uni rivojlantirish bilan bog‘liq bir talay ishlar amalga oshirildi. Natijada Respublikamizda valyuta birjasi shakllandi va u valyutalar oldi-sotdisi bilan bog‘liq operatsiyalarni muvafaqqiyatli amalga oshirib bormoqda.

Kalit so‘zlar. Spot kurs, kross kurs, forward kurs, valyuta kursi forward bitim.

EXCHANGE RATE REGIMES

ANNOTATION

Since the first day when the Republic of Uzbekistan became known to the world as an independent country, great attention has been paid to foreign economic relations. No country can develop perfectly without foreign economic relations. For this reason, ample opportunities and conditions have been created in the Republic of Uzbekistan for economic entities to develop foreign economic relations, establish joint ventures and attract foreign investments to the economy. From the first day of independence, this issue has been in the attention of the President of the Republic and the government. During the period between the initial introduction of the national currency of the Republic of Uzbekistan "soum" and the present day, a number of works related to the establishment and development of the currency system in the republic were carried out. As a result, a currency exchange was formed in our Republic and it is successfully carrying out transactions related to currency trading.

Key words. Spot rate, cross rate, forward rate, exchange rate forward contract.

KIRISH

Keyingi yillarda valyuta siyosati va tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini barqaror rivojlantirishga xizmat qilgani qayd etildi.

Valyuta kursi va uning turlari. Tashqi iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti turli mamlakatlarning valyutalari qiymatining o'zaro nisbatini o'lchashni talab etadi. Shu sababli valyuta kursi valyuta tizimining muhim elementi hisoblanadi.

Valyuta kursi – bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida yoki xalqaro valyuta birliklarda ifodalangan bahosidir. Tashqi valyuta kursi almashuv qatnashchilari uchun valyuta bozoridagi talab va taklif nisbati orqali aniqlanadigan bir valyutani boshqasiga qayta hisoblash koefitsientidir. Biroq valyuta kursining qiymat asosi bo'lib valyutaning xarid qobiliyati hisoblanadi. Valyutaning xarid qibiliyati investitsiya, tovar va xizmatlarning o'rtacha milliy narxlari darajasini ifodalaydi. Bu iqtisodiy (qiymat) kategoriyasi tovar ishlab chiqarishga tegishli bo'lib, u tovar ishlab chiqaruvchilar va jahon bozori o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi. Qiymat tovar ishlab chiqarish iqtisodiy shartlarining keng ko'lamli ifodasi bo'lgani uchun, turli mamlakatlarning milliy pul birliklarining taqqoslanishi qiymat munosabatiga asoslanadi va u ishlab chiqarish va almashuv jarayonlarida yuzaga keladi. Tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar hamda sotib oluvchilar valyuta kursi yordamida milliy narxlarni boshqa mamlakat narxlari bilan solishtiradilar. Taqqoslash natijasida mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarish yoki xorijda investitsiyani rivojlantirishning foydaliligi darjasini ko'rindi. Qiymat qonuniga qanchalik amal qilinmasin, oxir oqibat valyuta kursi uning ta'siriga bo'ysinadi. Valyuta kursi valyutaning real kurs nisbatlari ko'rindigan milliy va jahon iqtisodiyotlarining o'zaro aloqasini ifodalaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tovarlar jahon bozorida sotilayotganida milliy mahsulot qiymatini internatsional o‘lchovlari asosida jahon talabiga ega bo‘ladi. Shuningdek, ushbu tovarlarning jahon xo‘jaligi doirasida almashinishida valyuta kursi vositachi bo‘ladi.

Valyuta kursining qiymat asosi shu bilan shartlanadiki, oxirgi navbatda jahon narxlariga asoslangan ishlab chiqarishning internatsional bahosi jahon bozoriga asosiy tovar etkazib beruvchi mamlakat ishlab chiqarishning milliy baholariga tayanadi.

Xalqaro kapital harakatining tez o‘sishi bilan tovarlarga, shuningdek, moliyaviy aktivlarga nisbatan valyutaning xarid qobiliyati valyuta kursiga ta’sir ko‘rsatadi.

- Turli mamlakatlarning valyutalari va halqaro pul birliklari tuzilgan xalqaro bitimlariga xizmat ko‘rsatish jarayonida valyuta kursi aniqlanadi.

Kapitalning xalqaro xarakatining tez o‘sishi bilan bog‘liq ravishda valyuta kursini o‘zgarishiga valyutaning tovarlarni xarid qilish qobiliyati bilan birga moliyaviy aktivlarni xarid qilish qobiliyati ham ta’sir ko‘rsatadi.

1-jadval

Valyuta kursini O‘rganish mezonlari va turlari

Kurs o‘rnatish mezonlari	Valyuta kursining turlari
1. Belgilash turi bo‘yicha	Suzuvchi, Qat’iy belgilangan, aralash
2. Hisoblash usuli bo‘yicha	Paritet, haqiqiy kurs
3. Nisbat bo‘yicha	Kross kursi, to‘g‘ri, egri (teskari), fiksing
4. Bitim turi	Spot – kurs, muddatli bitim (forward) kursi
5. O‘rnatish joyi	Rasmiy (MB), tijorat (banklar), qora bozor
6. Valyutaning xarid qobiliyati paritetiga nisbatan	Paritetli, oshirilgan, kamaytirilgan kurs
7. Bitim qatnashchilari bo‘yicha	Sotib olish kursi (sotib oluvchi uchun), sotish kursi (sotuvchi uchun)
8. Inflyasiyani hisobga olish bo‘yicha	real kurs, nominal kurs, o‘rtacha

Manba: Boboqulov T., Abdullaev U. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari –

T.: 2014 y

Qonuniy normalarga va amaliyotga mos holda birjada chet el valyutasining kursining qimmatli qog‘ozlar kursini yoxud tovarlar bahosini o‘rnatilishi katirovkalash deb ataladi. Yoki qisqacha qilib aytganda valyuta kursini o‘rnatish katirovkalash deb ataladi. Jahon amaliyotida katirovkalashning 2 xil usuli mavjud;

1) to‘g‘ri katirovkalash. Agar xorijiy valyuta birligining baxosi milliy valyutada ko‘rsatilsa, ya’ni milliy valyutada xorijiy valyutaning bir birligiga to‘g‘ri keladigan miqdor ko‘rsatilsa, bu to‘g‘ri katirovkalash deb ataladi. Masalan, Hozirgi vaqtida 1 AQSh dollariga nisbatan o‘zbek so‘mining kursi 11340 so‘mni, 1 Rossiya rubliga nisbatan 139,97 so‘mni tashkil etdi. Bu to‘g‘ri katirovka bo‘lib, bunday katirovkalash hozirgi vaqtida jahondagi ko‘pchilik mamlakatlarda qo‘llanilib kelinmoqda.

2) Egri (teskari) katirovkalash. Bunda bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutalardagi miqdori o‘rnatiladi, ya’ni bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutadagi baxosi ko‘rsatiladi, masalan;

1

$$1 \text{ so‘m} = \text{----- AQSh dollar} \text{ yoki (1)}$$

11340

$$1 \text{ AQSh dollar} = 11340 \text{ so‘m}$$

1

$$1 \text{ so‘m} = \text{----- Rossiya rubli yoki (2)}$$

139,97

$$1 \text{ Rossiya rubli} = 139,97 \text{ so‘m}$$

Agarda ikki valyuta o‘rtasidagi nisbat qandaydir uchinchi valyutaga nisbatan olingan kurslarida aniqlansa, bunday nisbatni «kross-kurs» deb ataladi.

Masalan: $1/11340 \$ \text{ AQSh dollar} = 1/139,97 \text{ Rossiya rubli}$

Kross-kursdan foydalanish ancha og‘ir va risklidir. Ammo ularni qo‘llash quyidagi 2 xolatda zarur va foydalidir;

-sizning talabingizdagи valyutaga ega bo‘lgan sotuvchilarda sizning valyutangizga talab mavjud emas. (Masalan, frank Yaponiya ienasiga almashtirish kerak. Bu yerda

uchinchi valyuta AQSh dollari bo'lsin. Yaponiya ienasi sotayotganlar ichida frank sotib olishni xoxlaydiganlar yo'q).

Oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirishda valyuta bozorida quyidagi valyuta kurslarining ko'rinishlaridan foydalaniladi;

«Spot-kurs» bu naqd (kassa) bitimlarining kursidir. Spot-kurs bu bir mamlakat pul birligining shartnoma tuzilgan vaqtida o'rnatilgan baho bo'yicha boshqa mamlakatlar pul birliklarida ifodalangan bahosidir. Bunda valyutani valyuta bitimi tutilgan kundan boshlab 2 ish kunida almashtirib berish shart hisoblanadi. «Forward» kurs-bu muddatli valyuta bitimlarining kursidir.

Forward kursi valyutani kelajakda aniq bir kunga yetkazib berish sharti bilan sotilish va xarid qilish bahosini o'zida ifoda etadi.

Forward bitimlari odatda valyuta kurslarining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan risklarni bartaraf qilish maqsadida ishlatiladi. Bitim tuzilayotgan paytda forward kursda aniqlanadi va ana shu kurs bo'yicha valyuta sotiladi yoki sotib olinadi. Agar shartnoma muddati tugagan kunda kurs shartnoma kursidan farq qilsa, unda bir tomon foyda ko'radi va bir tomon zarar ko'radi.

Muddatli bitimlar buyicha valyuta kurslari (report) ustama yoki diskont metodi bo'yicha kapirovka qilinadi va «autrayt» kurslari deb ataladi.

Forward kurs = Spot kurs + Forward kurs ustamasi= Spot kurs-Diskont.

Misol. Bitim summasi - 1 mln. dollar

Bitim muddati - 90 kun

Bitim valyutasidagi kreditning foiz stavkasi (USD) - 3,5 % Baxolovchi valyutadagi depozitlarga to'lanadigan foiz stavkasi - 5,5 % Cpot kurs 1 =1,5210-1,5220 yevro

$$\text{Ust/Dis} = \frac{1,5210x(5,5-3,5)x90}{(360x100) + (3,5x90)} = \frac{273,78}{36315} = 0,0075$$

Forward kurs = 1,5210 + 0,0075 = 1,5285 (ustama) Foiz

Ustama yoki diskont ekanligi foiz stavkalari o‘rtasidagi farqdan bilish mumkin. Agar valyuta bitimi bo‘yicha foiz stavkasi baholovchi valyutaning foiz stavkasidan past bo‘lsa, bu valyuta yuqori kurs kotirovka qilinadi va chiqqan ko‘rsatkich ustama sotiladi. Agar valyuta bitimining foiz stavkasi yuqori bo‘lsa, bu ko‘satkich diskont bo‘ladi. Agar milliy valyutadagi depozitlarning foiz savkasi bitim valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasidan yuqori bo‘lsa, olingan natija diskont hisoblanadi va aksincha bo‘lsa ustama hisoblanadi.

Banklar valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda valyutani sotish va sotib olish kursini o‘rnatadi. Bu kurslar sotuvchining kursi va xaridorning kursi deb ataladi.

Sotuvchi kursi - bankning valyutani sotish kursi.

Xaridor kursi - bankning valyutani sotib olish kursi.

Bu kurslar o‘rtasidagi farq marja deb ataladi va u xizmat xarajatlarini qoplashga va ma’lum darajada foyda olishga sarflanadi.

Valyutaaning eng muhim xarakteristikasi uning konvertirlanganligidir.

Konvvertirlanganlik - darajasiga ko‘ra valyuta kursi 3 ga bo‘linadi.

Erkin «suzib» yuruvchi cheklangan darajada «suzib»yuruvchi.

Qayd etilgan valyuta kurslari.

Erkin «suzib» yuruvchi valyuta kursi ma’lum valyutaga bo‘lgan bozor talabi va taklifi ta’sirida o‘zgarib turishi mumkin. Masalan. AQSh dollori, Yaponiya ienasi, Angliya funt sterlingi; yevro kabi valyutalar jahon valyuta ayriboshlashida keng ishtirok etadi.

Cheklangan darajada «suzib» yuruvchi valyuta kurslarining o‘zgarishi ayrim valyutalar yoki bir guruh valyutalar (valyuta savati) kursi o‘zgarishiga bog‘liq. Misol uchun «Uchinchi dunyo»ning ko‘pchilik mamlakatlari o‘z valyutalarini AQSh dollariga, yeropa mamlakatlarining “EURO”siga va boshqa boshqa xorijiy valyutalarga bog‘laydilar. Cheklangan darajada “suzib” yuruvchi valyuta kurslari kiritilgan mamlakatlar o‘z valyutalarining tebranish chegarasini o‘zlar hamkorlik qilayotgan mamlakatlar bilan kelishib oladilar. Qayd etilgan valyuta kursi-bu xorijiy valyutada ifodalangan milliy pul birligining davlat tomonidan rasmiy o‘rnatilgan

bahosi bo‘lib, unga valyuta bozorlaridagi talab va taklifning o‘zgarishi ta’sir qilmaydi. Hozirgi vaqtda qayd etilgan valyuta kursi kam rivojlangan mamlakatlarda yoki iqtisodiy tashqi bozorga yetarli darajada kirib bormagan mamlakatlarda, ularning moliya tizimini va milliy ishlab chiqarishini kuchli xorijiy raqabatchilaridan himoya qilish va quvvatlash maqsadida qo‘llaniladi.

Real kursi = nominal kursi - o‘z mamlakatida ishlab chiqarilgan tovarlar bahosi, xorijiy tovarlar bahosi. Bu tenglikni umumiy ko‘rinishda shunday yozish mumkin; Real valyuta kursining nominal valyuta kursi baholar darajasi nisbatlari past valyuta kursida milliy tovarlar nisbatan arzonroq, xorijiy tovarlar esa nisbatan qimmatroq turishni ko‘rsatadi.

Valyutalari erkin konvertatsiya qilinadigan iqtisodiy tizimlarda valyuta kurslarining ayirboshlanish darajasi milliy eksport tarmoqlarining muvaffaqiyatini va boshqa mamlakatlardan import qilinadigan tovar hamda xizmatlar baholari darajasining hal qiluvchi omili bo‘lib hisoblanadi. Valyuta kurslarining muvozanatsizligi sharoitida banklar va tadbirkorlar ushbu muvozanatsizlik bilan bog‘liq xavf-xatarlarni boshqarishda katta qiyinchiliklarni o‘z boshidan kechiradi.

Valyuta savdosi bilan bog‘liq bazis operatsiyalarni quyida ko‘rib chiqish va ularni to‘g‘ri tushunish uchun ba’zi bir tushunchalarni o‘rganib olishimiz lozim.

Valyuta sifatida banklarning xorijda xorijiy valyutada joylashtirilgan aktivlari hamda xorijda to‘lovi amalga oshiriladigan xorijiy valyutadagi cheklar va veksellar tushuniladi. Bunda gap faqat naqdsiz pullar haqida boradi. Valyutaning qiymati tovarlar bilan savdodagi singari talab va taklifga bog‘liq bo‘lgan bahoda ifodalanadi. Ma’lum bir miqdordagi valyutaning bahosi boshqa bir valyutaning nisbiy birliklarida belgilanadi (milliy yoki xorijiy). Xorijiy valyutaning bahosi valyuta kursi deb ataladi.¹³

Valyuta kursi - bu, bir valyutani boshqa bir valyutadagi ifodasi yoki bahosidir. Masalan, 1 AQSh dollari = 970 O‘zbekiston Respublikasining so‘mi yoki 1 AQSh dollari = 31,75 Rossiya Federatsiyasining rubli.

¹³ Vohobov A.V., Rasulov T.S. Valyuta munosabatlari nazariyasi. T.: 2017 280 b

MUHOKAMALAR

Har qanday baho kabi valyuta kursi valyutaga talab va taklif ta'sirida asosiy qiymatidan (ya'ni valyutaning xarid qilish qobiliyatidan) nari-beri siljiydi. Bunday talab va taklifning o'zaro mosligi bir qator omillarga bog'liq. Valyuta kursining ko'p omilliligi uning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan bog'liqligini, jumladan, qiymat, narx, pul, foiz, to'lov balansi va boshqalar bilan bog'liqligini aks ettiradi. Shuningdek, ularing murakkab bir turi va ba'zi omillarning eng muhim omil sifatida yuzaga chiqishiga olib keladi. Bu omillar ichida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

1. Inflatsiya sur'atlari. Valyutalarning xarid qobiliyatları bo'yicha ularning o'zaro nisbati o'zida qiymat qonunini aks ettirib, valyuta kursini aniqlash vositasidir. Shu sababli valyuta kursiga inflatsiya sur'atlari ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatda inflatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, milliy valyuta kursi shunchalik past bo'ladi, (agar boshqa omillar qarshi tasir ko'rsatmasa).

Mamlakatimizda valyuta kursi o'zgarishini dinamikasi taxlili.

Keyingi yillarda valyuta siyosati va tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini barqaror rivojlantirishga xizmat qilgani qayd etilsin.

Maqbul miqdorda tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha izchil amalga oshirilayotgan siyosat O'zbekistonning majburiyatlarini o'z vaqtida bajaradigan ishonchli, to'lovga layoqatli xalqaro sherik sifatidagi imidjini ta'mnladi, keyinchalik valyuta kursini liberallashtirish uchun zarur oltin-valyuta zaxirasini shakllantirish, valyuta resurslarini real iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik qayta jihozlash va diversifikatsiya qilishning ustuvor sohalariga yo'naltirish, jahon moliyaviy inqirozining salbiy oqibatlarini yumshatish imkonini berdi.

Shu bilan birga, valyuta muomalasi sohasining haddan ziyod ma'muriy tartibga solinishi alohida tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun imtiyoz va preferensiyalarning asossiz ravishda kam samarali bo'lgan tizimini shakllantirdi,

biznes yuritishda teng bo‘lmagan shart-sharoitlarning vujudga kelishi va raqobatning bozor tamoyillari buzilishiga olib keldi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, tovarlar va xizmatlar eksportini oshirishda, umuman, mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida to‘sqinlik qiluvchi omilga aylandi.

2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq hamda valyuta sohasini tartibga solishning bozor mexanizmlarini joriy qilish, respublika eksport salohiyatini oshirishni rag‘batlantirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarining tashqi va ichki bozordagi raqobatdoshligini oshirish, mamlakatimizda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida quyidagilar ko‘zda tutilgan:

birinchidan, yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasini erkin sotib olish va sotish hamda o‘z mablag‘larini o‘zining xohishiga ko‘ra erkin tasarruf etish huquqlarini ro‘yobga chiqarishni to‘liq ta’minlash;

ikkinchidan, milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini belgilashda faqatgina bozor mexanizmlarini qo‘llash;

uchinchidan, valyuta resurslaridan foydalanishda bozor instrumentlarining rolini oshirish, valyuta bozorida barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish, valyuta siyosatining noan’anaviy tarmoqlarda eksportni rivojlantirishda, mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashda rag‘batlantiruvchi rolini oshirish;

to‘rtinchidan, sifatli ish o‘rinlari va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni bevosita rag‘batlantirish uchun iqtisodiyotning barcha sektorlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, bilim va texnologiyalar jalb etishga xizmat qiladigan ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash;

beshinchidan, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlashga qaratilgan qat’iy monetar siyosatni amalga oshirish, bu borada monetar instrumentlardan faol va moslashtirilgan holda foydalanish, davlat qimmatli qog‘ozlari bozorini rivojlantirish, shuningdek, ochiq bozorda operatsiyalar hamda davlat qimmatli qog‘ozlarini banklar

likvidligiga garovga berish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishni amaliyotga joriy qilish;

oltinchidan, monetar va fiskal siyosatni muvofiqlashtirish hamda Davlat byudjetining mutanosibligini ta’minlash orqali pul massasi haddan ziyod o‘sishining oldini olish;

yettinchidan, bank tizimining barqarorligini ta’minlash va uning tavakkalchiliklarga bardoshliligini, shu jumladan, valyuta siyosatini liberallashtirishning vujudga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirini yumshatishga qaratilgan samarali choralarni qo‘llash hisobiga oshirish;

sakkizinchidan, valyuta siyosatining yangi sharoitlarida tayanch tarmoqlar korxonalari samarali faoliyat yuritishi uchun ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rish;

to‘qqizinchidan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari turmush darajasiga valyuta siyosatini liberallashtirishning salbiy oqibatlarini kamaytirish imkonini beradigan har tomonlama ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari joriy xalqaro operatsiyalar (tovar, ish va xizmatlar importi, foyda repatriatsiyasi, kreditlarni qaytarish, xizmat safari xarajatlarini to‘lash va boshqa savdo xarakteriga ega bo‘lmagan o‘tkazmalar) bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish uchun tijorat banklarida chet el valyutasini cheklovsiz sotib olishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar chet el valyutasini tijorat banklarining valyuta ayriboshlash shoxobchalariga erkin sotishi va konversion bo‘limlarida sotib olingan mablag‘larni xalqaro to‘lov kartalariga o‘tkazish bo‘yicha amaldagi tartibga asosan sotib olishi va chet elda hech qanday cheklovlarsiz ishlatishi mumkin;

➤ iste’mol tovarlari importi bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga chet el valyutasini

jismoniy shaxslar uchun o‘rnatilgan tartibda, banklardagi hisobvaraqlar orqali sotib olishga ruxsat beriladi;

➤ mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha eksportchi korxonalarining chet el valyutasidagi tushumini majburiy sotish bo‘yicha talab bekor qilinadi;

➤ chet el valyutasida daromad oluvchi yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, fermer xo‘jaliklari o‘z bank hisobvaraqlaridagi chet el valyutasini naqd ko‘rinishida olishi mumkin.

➤ tovar (ish va xizmat)lar uchun to‘lovlarni chet el valyutasida amalga oshirish taqiqlanadi, xalqaro tajribaga muvofiq xalqaro to‘lov kartalari orqali to‘lovlardan mustasno;

➤ tovar, ish va xizmatlar uchun narx va tariflar, shuningdek, jamiyatlarning ustav kapitaliga qo‘yiladigan minimal talablar faqat milliy valyutada belgilanadi;

➤ davlat bojlari, yig‘imlari va boshqa majburiy to‘lovlardan faqat milliy valyutada undiriladi, konsullik yig‘imlari bundan mustasno.

➤ xorijiy valyutada kreditlar berish va undirish shartlari kredit siyosatidan kelib chiqqan holda tomonlarning o‘zaro kelishuviga asosan tijorat banklari tomonidan mustaqil belgilanadi;

➤ tijorat banklariga xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha litsenziya berish amaliyoti bekor qilinadi. Tijorat banklarining xorijiy valyuta bilan operatsiyalari bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 iyundagi PQ-3082-sonli qarori bilan tuzilgan ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlarining asosiy turlariga narx-navoni monitoring va nazorat qilish respublika va doimiy faoliyat yuritadigan hududiy komissiyalari narxlar barqarorligini ta’minalash bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rsin, shu jumladan, quyidagilar orqali:

➤ huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda ijtimoiy ahamiyatga ega tovar va xizmatlar uchun narx va tariflar asossiz oshishining oldini olish va bunga chek qo‘yish, ularning taqchilligi va ularga bo‘lgan ajiotajli talab

yuzaga kelishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni, shuningdek, ularni sotish jarayonida korrupsiyaga va suiiste’mollikka qarshi kurashish choralarini kuchaytirish;

➤ iqtisodiyot va aholini energiya resurslari bilan uzlucksiz ta’minlashga, xorijiy kreditlarga o‘z vaqtida xizmat ko‘rsatishda davlat tomonidan moliyaviy yordam berish, soliqqa tortish mexanizmlari va tamoyillarini takomillashtirish, davlat tomonidan vaqtincha subsidiyalar ajratish, O‘zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi va tijorat banklari kreditlarini restrukturizatsiya qilishga qaratilgan iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari;

➤ import qilinayotgan tovarlar va xizmatlar ichki narxlarining o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida bojxona to‘lovlari stavkalarini optimallashtirish chora-tadbirlari;

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonun, T.: “O‘zbekiston”, 1995.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017-yil 2-sentabrdagi PF 5177-son Farmoni.
3. Vohobov A.V., Rasulov T.S. Valyuta munosabatlari nazariyasi. T.: 2013 280 b
4. Xudoyberdiev Z. va boshqalar. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. T.: “IQTISOD-MOLIYa” 2012 y
5. Bobokulov T., Abdullaev U.A. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. T.: “Sano-standart” 2014y
6. Jumaev N.X. O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish. T.: “FAN VA TEHNALOGIYa” 2007y.

IV. Internet saytlari.

- 1.1.<http://www.cbu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
- 1.2.<http://www.stat.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti